

Dastlabki atrof-muhit tekshiruvi

OMMAVIY

Loyiha raqami: 53120-001

Sentabr, 2025

Loyiha hisoboti

O'zbekiston: Orol dengizi havzasida iqlimga mos suv resurslarini boshqarish loyihasi (Kegeyli asosiy bo'lmagan subloyihasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi)

O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi Suv xo'jaligida xorijiy investitsiyalar loyihalarini
amalga oshirish markazi va Osiyo taraqqiyot banki (OTB) tomonidan tayyorlangan.

Ijroiya xulosasi

1. **O‘zbekiston Respublikasi** Markaziy Osiyoda joylashgan, dengizga chiqish imkoniyati bo‘lmagan (qo‘shni davlatlar ichida qolgan) mamlakat bo‘lib, umumiy maydoni 448 900 kv kilometrni (km²) tashkil etadi. O‘zbekiston shimol va g‘arbdan – Qozog‘iston, sharqdan – Qirg‘iziston, janubi-sharqdan – Tojikiston, janubdan esa – Turkmaniston va Afg‘oniston bilan chegaradosh.¹

2. Qishloq xo‘jaligi O‘zbekiston iqtisodiyotida muhim o‘rin tutadi, chunki u qishloq aholisi tirikchiligi, bandlik, o‘zini-o‘zi ta‘minlash, oziq-ovqat xavfsizligi va eksport nuqtai nazaridan katta ahamiyatga ega. Sektor yalpi ichki mahsulot (YaIM) va bandlikning 25 foizidan ortig‘ini ta‘minlaydi hamda mamlakatdagi umumiy suv iste‘molining qariyb 90 foizini tashkil etadi. Hisob-kitoblarga ko‘ra, jami aholining qariyb 50 foizi qishloq joylarda yashaydi va shuning uchun mamlakat qishloq xo‘jaligi va u bilan bog‘liq turmush tarziga juda bog‘liq.

3. Mamlakatning umumiy qishloq xo‘jaligi yerlari 25,2 million gektarni (ga) tashkil etadi, shundan 4,3 million gektar (ga) sug‘oriladigan yerlar va 23,4 million gektar hosili kam yoki unumdorligi past yaylovlardir. Sug‘oriladigan maydon Amudaryo va Sirdaryo havzalarida joylashgan bo‘lib, umumiy sug‘oriladigan yerlarning mos ravishda 56 foizi va 44 foizini tashkil etadi. Ushbu ikki daryo asosiy suv manbai hisoblanadi va mamlakat mintaqada mavjud umumiy suv resurslarining 52 foizini oladi. Suvning qariyb 90 foizi qishloq xo‘jaligi sektori tomonidan iste‘mol qilinadi.

4. Jahon banki hisobotiga ko‘ra (Mamlakat iqlimi va taraqqiyoti hisoboti, 2023-yil, noyabr), sug‘orish uchun suv talabi 2030-yilga borib 5 foizga va 2050-yilga borib 7–10 foizga oshishi mumkin. Suv tanqisligi 2030-yilga borib yiliga 7 milliard kub metr va 2050 yilga kelib 15 milliard kub metr ga ko‘tariladi.

5. Iqlim o‘zgarishi sababli 2050 yilga borib, xuddi shu hisobotda Amudaryo (15 foiz) va Sirdaryo (5 foiz) suv resurslarining qisqarishi bashorat qilinmoqda, Har ikkala daryo O‘zbekistonda sug‘orish uchun hayotiy manba hisoblanadi.

6. **Issiqxona gazlari (IG) chiqindilari** – Sug‘orish maqsadida suvni nasoslar orqali chiqarish O‘zbekistonda umumiy elektr energiyasi iste‘molining 15–20 foizini tashkil etadi. Bu esa har yili 3 million tonnadan ortiq CO₂ chiqindilariga teng bo‘lib, mamlakatning umumiy chiqindilarining qariyb 2–3 foizini tashkil etadi. 2010–2016 yillardagi IG inventarizatsiyasi ma‘lumotlariga ko‘ra, energiya sektoridan keyin qishloq xo‘jaligi O‘zbekistondagi issiqxona gazlari chiqindilarining ikkinchi yirik manbai hisoblanadi².

7. Sug‘orish tarmoqlarining asosiy qismlari sovet davrida 1960–1980 yillarda qurilgan bo‘lsa, ba‘zilari undan oldin ham qurilgan. Sug‘orish va drenaj infratuzilmasining yomon ahvoli va eskirganligi sababli sug‘orish samaradorligi past, taxminan 40 foizni tashkil etadi va hozirda keng ko‘lamli rekonstruksiya va modernizatsiya talab etadi, batafsil ma‘lumot uchun 3-rasmga qarang.

8. So‘nggi yillarda Hukumat tomonidan yer va suv resurslarini boshqarishni yaxshilashga, jumladan, drenaj va sug‘orish tizimlariga katta e‘tibor qaratildi va bu yo‘nalishda yuzlab loyihalar amalga oshirilmoqda. Shunday tashabbuslardan biri Hukumat va Osiyo Taraqqiyot Banki (OTB) hamkorligida olib borilayotgan **“Orol dengizi havzasida iqlimga moslashuvchan suv resurslarini boshqarish”** loyihasi hisoblanadi.


9. Sug‘orish va drenaj (S&D) tizimini rekonstruksiya qilish va modernizatsiya qilish uchun hukumat sakkizta potensial kichik loyihalar (subloyihalar) ro‘yxatini taklif qildi, ularning joylashuvi 1-rasmda ko‘rsatilgan. Hukumat va OTB 2019-yilda ikki vakillik qiluvchi **“Asosiy”** subloyihani tanlagan, ya‘ni: (a) Babatag sug‘orish tizimi, (b) Jondor sug‘orish tizimi – hozirda

¹ <https://iea.blob.core.windows.net/assets/0d00581c-dc3c-466f-b0c8-97d25112a6e0/Uzbekistan2022.pdf>

² Texnik-iqtisodiy hisobot loyihasi (2024)

amalga oshirilmoqda. Shuningdek, hukumat va OTB o'rtasida hukumat taklif qilgan ro'yxatdan ikki **“asosiy bo‘lmagan”** subloyihani tanlash uchun OTBning oldindan belgilangan mezonlaridan foydalanishga kelishib olindi (16-jadval).

1-rasm: Barcha kichik loyihalarning joylashuvi



10. **Asosiy bo‘lmagan** subloyihalarni tanlash – ikki asosiy bo‘lmagan subloyihadan biri sifatida hukumat oldindan belgilangan Saralash Mezonlari (Screening Criteria) asosida Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi “Kegeyli” kanalini rekonstruksiya va modernizatsiya qilish uchun aniqladi. Batafsil ma’lumot uchun 17A va 17B-jadvallarga hamda 1-Ilovaga qaralsin. “Kegeyli” kanalini modernizatsiya qilish va iqlimga moslashuvchan choralarni ko‘rish qishloq xo‘jaligi samaradorligini va fermerlar daromadlarini oshirish bilan birga, fermer xo‘jaliklari hamda suvdan foydalanishni boshqarish salohiyatini mustahkamlaydi.

11. Kanallarning yomon holati, suv oqimining ko‘pligi, boshqaruv balandliklarining yetishmasligi, gidravlik inshootlarning eskirishi va yemirilishi, sug‘orish samaradorligining pastligi hamda yuqori ekspluatatsiya xarajatlari “Kegeyli” kanalini modernizatsiya qilish uchun tanlanishining asosiy omillari hisoblanadi.

12. **Kegeyli asosiy bo‘lmagan subloyihasi** tuproq kanaldan iborat bo‘lib, 1938-yilda qurilgan. U Qoraqalpog‘iston Respublikasida joylashgan va Qizketken sug‘orish tizimining bir qismi hisoblanadi. Kanalning sug‘oriladigan maydoni 100,650 gektarni tashkil etadi. Kanal uzunligi 56,4 km bo‘lib, suv manbai Amudaryo daryosidan olinadi. “Kegeyli” kanali Nukus, Kegeyli, Chimboy,

Qorao‘zyak, Bozatov, Mo‘ynoq tumanlarini suv bilan ta‘minlaydi. Tuproq o‘zanli kanali yuqori darajadagi filtratsiyaga ega (suvning katta qismi yer ostiga singib ketadi).

13. Institutsional tuzilma – Loyiha ijro etuvchi tashkilot (PEA-executing agency) O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi (SXV) hisoblanadi. U to‘rtta subloyiha (ikki “asosiy” va ikki “asosiy bo‘lmagan” subloyiha) uchun mas’uldir. SXSXILAOM (CIFIPWS) qoshidagi Loyihani amalga oshirish bo‘limi (LAOB-PIU) loyihalash, qurilishni boshqarish va nazorat qilish, shu jumladan Atrof-muhitni muhofaza qilish qoidalariga rioya qilinishini ta‘minlash uchun javobgardir. Vazifa va javobgarliklar haqida batafsil ma‘lumot uchun 58-Jadvalga qarang.

14. QK SMEC International Pty Ltd. va Annexure Financial Solutions Ltd. 2022-yildan 2028-yilgacha yetti (7) yil muddatga Loyihani amalga oshirish bo‘yicha maslahatchi (LAOBM-PIC) etib tayinlangan, bu LAOBga texnik-iqtisodiy asoslarni tayyorlashda, “asosiy bo‘lmagan” sug‘orish subyektlari uchun DAMT (Dastlabki atrof-muhit tekshiruvi – IEE)ni o‘tkazishda yordam beradi; umumiy loyihani amalga oshirish, shu jumladan xaridlar, moliyaviy boshqaruv, qurilish nazorati, himoya choralari (ekologik va ijtimoiy), monitoring va hisobot.

1-jadval: Snapshot (снимок) - Kegeyli subloyihasi

Tafsilotlar	Kegeyli asosiy bo‘lmagan subloyihasi
Loyiha ijro etuvchi tashkilot	Suv xo‘jaligi vazirligi (SXV)
Loyihani amalga oshirish bo‘limi (LAOB)	Suv xo‘jaligi sohasida xorijiy investitsiyalar loyihalarini amalga oshirish markazi (SXSXILAOM) tarkibidagi Loyihani amalga oshirish bo‘limi (LAOB) loyiha ijro etuvchi tashkilot hisoblanadi
Loyihani amalga oshirish bo‘yicha maslahatchi (LAOBM)	QK SMEC International Pty Ltd. va Annexure Financial Solutions Ltd loyihani amalga oshirish bo‘yicha maslahatchi (LAOBM) hisoblanadi
Moliyalashtiruvchi tashkilot	Osiyo taraqqiyot banki
Loyiha kategoriyasi	B toifali loyihalar sifatida tasniflangan; batafsil ma‘lumot uchun 17-jadvalga qarang
Joylashuvi	Qoraqalpog‘iston Respublikasi
Qurilgan yili	1938
Kanalning uzunligi va turi	Kegeyli kanali - Tuproqli kanal - Kanal uzunligi 55,5 km, CH 0 dan CH 366+00 gacha Ikkilamchi kanal (Kegeyli quyi kanali) - Tuproqli kanal
Modernizatsiya va rekonstruksiya doirasi	Kegeyli kanali - Kanallarning umumiy uzunligidan 36,6 kilometrini yangilash va modernizatsiya qilish rejalashtirilgan. Ikkilamchi kanal (Kegeyli quyi kanali) 18,64 km modernizatsiya doirasiga kiradi
Kegeyli kanali uchun suv manbai	- Kegeyli kanali suvni Dustlik kanalidan oladi, u esa Razvilka suv inshooti orqali Amu Daryo daryosidan suv oladi. Ikkilamchi kanal (Kegeyli quyi kanali) suvni Kegeyli pastki kanalidan PK366 nuqtasidan oladi
Ekin ekish	- Asosiy ekinlar – bug‘doy, sholi va paxta - Boshqalar: Chorva ozuqasi uchun makkajo‘xori, kartoshka, sabzavot va boshqalar.
Kommunal tarmoqlarni ko‘chirish (o‘zgartirish)	Batafsil ma‘lumot uchun 36-jadvalga qarang.

Atrof-muhit va ijtimoiy masalalar						
Atrof muhitga ta'siri	● Asosan oʻrtacha, vaqtinchalik va obyektga (joy) xos					
Daraxtlarni kesish	Daraxtlar nomi		R-8 Kanali	Kegeyli		
	Asiatic Poplar (Turongil)		1,797	1,506		
	Willow (Southern)(Terak)		124	161		
	Elaeagnus angustifolia (Jida)		58			
	Tamarix hispida wild (Juglun)			780		
	Salix Wilhelmsiana M.B. (Qorator)		188			
	Jami		1,567	2,447		
Biologik xilma xilligi	- Sub-loyiha hududi atrofida 1, 2 va 5 km radiusda hech qanday KBA (Key Biodiversity Area - asosiy biologik xilma-xillik hududi) aniqlanmadi - Sub-loyiha hududi atrofida 10 km radiusda potentsial xavf ostidagi turlar aniqlanmadi - XTRSI (Xalqaro tabiiy resurslarni saqlash ittifoqi) Xavf ostidagi turlar Qizil Roʻyxatida hech qanday tur mavjud emas - Hech qanday eʼlon qilingan Ramsar botqoqlik hududlari mavjud emas - Oʻzbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan oʻsimlik turlari topilmagan 1, 2 va 5 km ichida qoʻriqlanadigan hududlar yoʻq - Markaziy Osiyo uchish yoʻli (MOUY) hotspot (yuqori ahamiyatga ega) hududiga kiradi³ - Hech qanday asosiy turlar mavjud emas, shuningdek, ekotizimning umumiy faoliyati uchun muhim boʻlgan turlar ham aniqlanmadi					
Yerni olish va majburiy koʻchirish	Zarar koʻrishi kutilayotgan odamlar: “Kegeyli” kanali: 9 ta zarar koʻradigan subyektlar (shundan 8 tasi fermer xoʻjaligi yerlari, klaster) va 9 ta umumiy foydalanishdagi yer uchastkalari. Jami 54,94 ga. R8 boʻyicha zarar koʻradigan shaxslar yoʻq.					
Loyihaning yerlarga taʼsiri, Kegeyli, yer olish va majburiy koʻchirish rejas	Tuman	Taʼsir turlari	Yer uchastkalari soni	Zarar koʻrgan yer foydalanuvchilari	Jami zararlangan yer, ga	zararlangan yerlar %
	Kegeyli	Fermer xoʻjaligi yerlari	8	8	44.57	81%
		Qorakoʻl klasteri	1	1	2.25	4 %
		Davlat zaxiralari yerlari	9		8.12	15 %
		JAMI	18	9 ta zarar koʻrgan yer foydalanuvchilari	54.94	100 %
Ijtimoiy himoya guruhi bilan maslahatlashuvlar soni	“Kegeyli” kanali: 2024-yil 23-sentabrdagi ommaviy yigʻilish va 2024-yil 12–14 mart kunlari ZKSh bilan individual uchrashuvlar					
Asbest tarkibli material (ATM)	Obyektni oʻrganish davomida tarkibida asbest boʻlgan materiallar aniqlanmagan.					

15. OTBning oldindan belgilangan saralash mezonlariga binoan, Kegeyli kichik loyihasi B toifali loyihalar sifatida tasniflanadi. Kegeyli sub-loyihasi shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "O'zbekistonda yanada rivojlanish bo'yicha Harakatlar Strategiyasi" (2017) bilan muvofiqlashtirilgan bo'lib⁴, unda (i) suvni tejash texnologiyalari joriy etish va iqlim o'zgarishi hamda Orol dengizining qurib borishiga salbiy ta'sirini kamaytirish choralari belgilangan; (ii) sug'oriladigan yerlar va irrigatsiya

Source: Cadaster Agency, Republic of Karakalpakstan

³ The Central Asian Flyway (CAF), a vast network of migratory routes, plays a pivotal role in the conservation of millions of migratory birds by connecting breeding grounds in the Arctic and sub-Arctic regions with wintering sites in South Asia, the Indian Ocean, and Africa

⁴ Government of Uzbekistan. 2017. Presidential Decree of the Republic of Uzbekistan of February 7, 2017 No. UP- 4947, About the strategy of actions for further development of the Republic of Uzbekistan. Tashkent.

inshootlarini yaxshilash; va (iii) paxta va boshqaliq don ekinlari maydonlarida bog'dorchilik va boshqa yuqori qiymatli mahsulotlar yetishtirishni kengaytirishni qo'llab-quvvatlash orqali qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish. TAMB (Tezkor atrof-muhit baholash) tekshirish ro'yxati loyiha yakuniy loyihasi tugallangandan so'ng to'ldirilib, Ilova sifatida kiritiladi. Bundan tashqari, turli elementlarga havolalar sub-loyiha mezonlariga muvofiq Atrof-muhitni baholash va ko'rib chiqish tizimi (AMBKChT) ko'rsatmalariga binoan hisobga olinadi. Bu loyiha yakuniy loyihasi tugallangandan so'ng bajarilib, Ilova sifatida kiritiladi.

16. Kegeyli sub-loyihasining Dastlabki Atrof-muhit Tekshiruvi (DAMT) CAWRM-ASBSP doirasida tayyorlangan bo'lib, 2009 yildagi OTB Ekologik va ijtimoiy xavfsizlik siyosati bayonoti (EIXSB) talablariga javob beradi. DAMT quyidagi maqsadlarni hisobga olgan holda tayyorlangan;

- a) Kegeyli sub-loyihasini amalga oshirish natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan potentsial to'g'ridan-to'g'ri, bilvosita atrof-muhit ta'sirlarini va xavf-xatarlarni aniqlash;
- b) Sub-loyihalarning alternativ variantlarini tahlil qilish, iqlimni hisobga olgan texnik yechimlarni taqdim etish, shu jumladan "loyiha amalga oshirilmasligi" variantini ham kiritish;
- c) Atrof-muhitni boshqarish rejasini (AMBR) ishlab chiqish, unda taklif etilgan ta'sirni kamaytirish choralari, monitoring va hisobot berish mexanizmlari, institutsional va tashkiliy tartiblar, shuningdek, salohiyatni rivojlantirish va treninglar bo'yicha chora-tadbirlar kiritiladi, AMBR sub-loyiha loyihasi paketiga qo'shiladi va keyinchalik pudratchi tomonidan amalga oshiriladi;
- d) Loyihamning potentsial ta'sirlari haqida ma'lumot berish, manfaatdor tomonlar bilan o'tkazilgan maslahatlashuv natijalarini umumlashtirish, shuningdek, shikoyatlarni ko'rib chiqish tartiblarini kiritish.

17. Kegeyli sub-loyihasi va unga aloqador faoliyatlarning potentsial atrof-muhitga ta'sirlari qisqa muddatli, qaytariladigan va asosan loyiha hududiga xosdir. Kegeyli subloyihasini qurish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ta'sir quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin: (I) Nazoratsiz chiqindilar natijasida havo ifloslanishi; (II) Kanalni rekonstruksiya qilish ishlari jarayonida cho'kindilarni utilizatsiya qilish, jumladan sug'orish kanallari va drenaj kollektorlaridan qazib olingan cho'kindilar va boshqa materiallarni chiqarib tashlash; (III) Qurilish shaharchasi va ishchilar turar-joy koloniyasidan chiqindilarni utilizatsiya qilish; (IV) Neft mahsulotlari va xavfli materiallardan tuproq va suvning ifloslanishi; (V) shovqin va tebranish (vibration); (VI) mahalliy gidrologiyaga ta'siri; (VII) kanal bo'ylab mahalliy flora va faunaga ta'sir qiladi; (VIII) jamoat salomatligi va xavfsizligi muammolari, shu jumladan noqulayliklar; va (IX) Ishchilarning mehnat salomatligi va xavfsizligiga bo'lgan xatarlar (X) ishchi kuchi oqimi tufayli ijtimoiy ziddiyat va boshqalar. Ushbu potentsial ta'sirlar odatda mahalliyashtirilgan, qisqa muddatli va kichik miqyosda bo'lib, AMBR/OUMAMBRni amalga oshirish va yaxshi qurilish amaliyotlarini qabul qilish orqali minimallashtirilishi mumkin.

18. Dastlabki tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Kegeyli sub-loyihasini modernizatsiya qilish uchun kanal bo'ylab, uning ikki tomonida joylashgan ko'plab daraxt va butalarni kesish talab etiladi. Kanal qurish uchun loyiha mahalliy joylardan olinadigan katta miqdordagi qumni ham talab qiladi. Qum va boshqa materiallar olinadigan karer maydoni batafsil loyihalash bosqichida va tender savdolari jarayonida tekshiriladi hamda yakuniy tasdiqlanadi. Kanalning 34 km uzunligi bo'yicha taxminan 100 000 m³ qum va 200 000 m³ shag'al (yoki inert materiallar) talab etilishi hisoblangan.

Daraxt nomlari	R-8 Kanali	Kegeyli
Asiatic Poplar (Turongil)	1,797	1,506
Willow (Southern)(Terak)	124	161
Elaeagnus angustifolia (Jida)	58	
Tamarix hispida wild (Juglun)		780
Salix Wilhelmsiana M.B. (Qoratal)	188	
Jami	1,567	2,447

19. Suv xavfsizligi va qishloq xo'jaligi samaradorligidan tashqari, Kegeyli loyihasi Qoraqalpog'istonda quyidagi ijobiy umumiy va bilvosita ta'sirlarni keltirib chiqarishi kutilmoqda: sug'oriladigan yer maydonining kengayishi, fermerlarning daromad olish imkoniyatlarining mustahkamlanishi, gender tengligining yaxshilanishi hamda ayollarning yer va suv resurslarini boshqarishda ishtirokining ortishi. Bu esa, o'z navbatida, aholining umumiy ijtimoiy-iqtisodiy farovonligiga, shu jumladan sog'lig'iga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

20. Qoraqalpog'istonda 2023-yil 23-sentabr kuni Chimboy tumani hokimligida manfaatdor tomonlar bilan konsultatsiya o'tkazildi. Uchrashuvlar davomida Kegeyli sub-loyihasi taqdim etildi, DAMT jarayoni tushuntirildi, potentsial ta'sirlar va AMBR muhokama qilindi hamda takliflar, izohlar yig'ib olindi. Jamoatchilik uchrashuvlarida fermerlar, Chimboy, Kegeyli va Nukus tumanlaridan vakillar, mahalliy hokimiyatlar, Havza irrigatsiya tizimi boshqarmasi mutaxassislari, kadastr xizmati hamda boshqa manfaatdor tomonlar ishtirok etdi. *Batafsil ma'lumot uchun VII bobga qarang – Jamoatchilik bilan maslahatlashish (konsultatsiya) va axborotni oshkor qilish.*

21. Suv xo'jaligi inshootlarining yomonlashuvi mahalliy hokimiyatlarga sug'orish uchun barqaror suv ta'minotini kafolatlashda qiyinchilik tug'dirmoqda. Agar Kegeyli sub-loyihasi amalga oshirilmasa, quyidagi asosiy ta'sirlar yuzaga keladi;

- a) Suv ta'minoti quvvati va samaradorligi pasayishda davom etadi,
- b) Vaqt o'tishi bilan suv yo'qotilishi va sho'rlanish kuchayadi,
- c) Qishloq xo'jaligida hosildorlik pasayadi,
- d) suv resurslarini boshqarish salohiyati yaxshilanmaydi,
- e) Infratuzilma modernizatsiya qilinmaydi,
- f) Suv yetishmasligi sababli foydalanilmayotgan yerlar ulushi ortadi,
- g) Fermer xo'jaliklarini boshqarish va suvdan foydalanish salohiyati yaxshilanmaydi,
- h) Umuman olganda, Kegeyli sug'orish hududidagi fermer xo'jaliklarining daromadlari yaxshilanmaydi.

22. Yuqorida keltirilgan sabablar tufayli **“Loyiha amalga oshirilmasligi varianti” maqbul deb hisoblanmaydi.** Bundan tashqari, keyingi boblarda bayon etilganidek, Kegeyli sub-loyihasining atrof-muhitga ta'sirlarini kamaytirish choralari orqali oldini olish yoki minimallashtirish mumkin.

Tavsiya

23. Loyihalash bosqichida iqlimga moslashuv choralari kiritilishi.

- a) Nasoslar va shlyuzlarni qulflashni joriy etish hamda markazlashgan monitoring tizimi bilan ta'minlash.
- b) Kanal bo'ylab daraxtlar zich joylashgan hududlarda loyihani qayta ko'rib chiqish orqali daraxt kesilishini oldini olish va kamaytirish lozim; daraxt va butalarni kesish o'rniga ularni ko'chirish va parvarishlash imkoniyatlari ko'rib chiqilishi kerak.
- c) Loyiyaning umumiy uglerod izini kamaytirish maqsadida asosiy yoki ikkilamchi kanallarga beton qoplama plitalarini qo'shish imkoniyatini ko'rib chiqish;
- d) Iqlimga moslashuvchan loyihani qo'shish imkoniyatini ko'rib chiqish – an'anaviy oqimga asoslangan tizimdan zamonaviy suv sathi va oqimni boshqariladigan loyihaga o'tish
- e) Modernizatsiyadan keyin ham, suv chiqarish inshootlarining 35–40 foizi elektr energiyasi (nasoslar) orqali ishlashda davom etadi. Uglerod izini (CO₂) kamaytirish uchun quyidagi tavsiyalar beriladi;
 - Agar nasoslardan foydalanishni butunlay cheklash imkoni bo'lmasa, uglerod izini kamaytirish uchun eski nasoslarni energiya tejamkor nasoslar bilan almashtirish imkoniyatlarini ko'rib chiqish lozim

- Kanal usti va kanal bo'yida quyosh panellari (PV) loyihalarini joriy etish imkoniyatini ko'rib chiqish; batafsil ma'lumot uchun 290-bandga qarang – Hindiston tajribasi – kanal usti va kanal bo'yida quyosh energiyasi.
- Uglerod izini kamaytirish uchun kam uglerodli materiallar va mahalliy qurilish materiallaridan foydalanish imkoniyatlarini o'rganish

24. Qurilishgacha bo'lgan bosqich (tayyorgarlik bosqichi) va Qurilish bosqichi

a) Majburiy ko'chirish – Kegeyli kanalini modernizatsiya qilish jarayoni majburiy ko'chirishni keltirib chiqarishi mumkin, dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, 56,94 gektar yer maydoni zarar ko'radi. Shuning uchun, ijtimoiy ta'sir darajasini baholash va unga mos ravishda YOMKni tayyorlash uchun ijtimoiy ijtimoiy tekshiruv o'tkazish tavsiya etiladi.

b) Qurilish ishlari boshlanishidan oldin, LBB Ekologiya va Atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasidan ekologik xulosa hujjatini olishi kerak.

c) AMBR tender bosqichida pudratchilarga DAMT va AMBR talablarini yetkazish uchun qo'llanilishi mumkin, shuningdek, LAOB pudratchiga OUMAMBRni AMBRga muvofiq tayyorlashda yo'l-yo'riq ko'rsatishi shart. DAMT va AMBR hozircha ishchi loyiha (draft) bo'lib, batafsil loyihalash (DD) bosqichida yangilanadi.

d) LAOB/LAOBM atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha talablarni tender hujjatlariga va shartnomaga kiritilishini ta'minlashi lozim; pudratchilar esa AMBR/OUMAMBRni amalga oshirish uchun yetarli darajada xodim va mablag'ni ajratishi kerak;

e) 61-jadvalda SXV/LBB/LAOBMning atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha mas'uliyatini o'z ichiga olgan tavsiyalar sanab o'tilgan.


25. Eksploatatsiya bosqichi

- Fermerlar tomonidan loyihani qabul qilinishini amalga oshirish uchun ularga kafolatlangan minimal miqdorda suv yetkazib berilishini ta'minlash;
- Suvni tejash choralari (masalan, tomchilatib sug'orish va boshqalar) qo'llayotgan yoki joriy qilayotgan fermerlarni rag'batlantirish.
- Suvni tejash choralari haqida xabardorlikni shakllantirish

I. KIRISH

26. Mamlakatdagi umumiy qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining qariyb 95 foizi Markaziy Osiyodagi eng yirik bo'lgan keng qamrovli sug'orish va drenaj tarmog'iga bog'liq. Eskirgan sug'orish va drenaj infratuzilmasi yer resurslari bilan bir qatorda yer usti va yer osti suvlariga ham bosimni oshirmoqda. Me'yorlardan ortiqcha suv sarfi, suv resurslarini noto'g'ri boshqarish va yetarli darajadagi drenaj tizimining yo'qligi – yer degradatsiyasining asosiy omillari bo'lib, ular hosildorlik va yer unumdorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. (2-rasm: O'zbekiston Respublikasida sug'oriladigan qishloq xo'jalik yerlari).

2-rasm: O'zbekiston Respublikasining sug'oriladigan dehqonchilik maydonlari⁵



Manba: O'zbekiston, Mamlakat iqlimi va taraqqiyoti hisoboti, 2023-yil noyabr, Jahon banki


27. Noto'g'ri sug'orish amaliyotlari va yetarli bo'lmagan drenaj tizimlari tufayli mamlakatda 500 ming gektardan ortiq yer suv bosishi va sho'rlanishdan allaqachon zarar ko'rgan. Batafsil ma'lumot uchun 3-rasmga qarang: Turli sug'orish hududlarida sug'orish samaradorligi.

28. 2019 yilda mamlakatda mavjud 4,3 million gektar yer maydonining 2,6 million gektari sug'orish uchun ishlatilgan. Buning sabablari: (a) sho'rlanish tufayli qishloq xo'jaligi yerlarining tashlab ketilishi, (b) infratuzilmaning buzilishi, (c) elektr energiyasi yetishmasligi, va (d) shahar va sanoat kabi raqobatbardosh foydalanuvchilarning ortishi sababli suvning yetarli emasligi.

⁵ <https://documents1.worldbank.org/curated/en/099111423124532881/pdf/P1790680f452f10ba0a34c06922a1df0003.pdf>

3-rasm: 2016–2020 yillarda turli sugʻoriladigan qishloq xoʻjalik hududlarida sugʻorish samaradorligi


Irrigation efficiency, 2016–2020



Manba: Oʻzbekiston, Mamlakat iqlimi va taraqqiyoti hisoboti, 2023-yil noyabr, Jahon banki.

29. Yer degradatsiyasining darajasi va sabablari turli viloyatlarda keskin farq qiladi; mamlakat yerlarining taxminan 30 foizi (13,7 million gektar) jiddiy degradatsiyaga uchrigan, asosan suv tanqisligi, tuproq degradatsiyasi va shoʻrlanish sababli, bu esa yer degradatsiyasining asosiy omillari hisoblanadi. (4-rasm: Yer degradatsiyasi nuqtalari.

4-rasm: Mamlakatdagi yerlarning degradatsiyaga uchrigan nuqtalari



Manba: Oʻzbekiston, Mamlakat iqlimi va taraqqiyoti hisoboti, 2023-yil noyabr, Jahon banki

30. Mamlakatda sug'orish samaradorligi taxminan 40 foizni tashkil qiladi (Jahon banki, 2023). Biroq, Qoraqalpog'istonda bu ko'rsatkich o'rtachadan past (2020 yilda biroz 20 foizdan oshgan), 3-rasmga qarang. Sug'orish samaradorligining pastligiga quyidagi sabablar kiradi;

- (a) Qishloq xo'jaligi yerlarining tashlab ketilishi
- (b) Eskirgan va buzilgan infratuzilma, sug'orish me'yorlaridan ortiq suv sarfi
- (c) Raqobatbardosh foydalanuvchilar tufayli suv yetishmasligi
- (d) Elektr energiyasining yetishmasligi
- (e) Tuproqlarning sho'rlanish darajasining ortishi

31. Baholashga ko'ra (Jahon banki, 2023), agar suvni samarali ishlatish bo'yicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmasa, qishloq xo'jaligi hosildorligi 10 foizga kamayishi kutilmoqda. Xuddi shu hisobotga ko'ra, samarali suv boshqaruvi amaliyotlarini joriy etish va mavjud sug'orish infratuzilmasini modernizatsiya qilish orqali qishloq xo'jaligi hosildorligi 62 foizga oshishi mumkin.

32. Osiyo Taraqqiyot Banki O'zbekiston Hukumatini Amudaryo va Zarafshon daryolari havzalaridagi eskirgan sug'orish va drenaj sub-loyihalarini modernizatsiya qilishda qo'llab-quvvatlamoda.

33. Sug'orish tizimini mustahkamlash maqsadida, Osiyo Taraqqiyot Banki (OTB) 2019 yil 7 avgustda Aral dengizi havzasida iqlimga mos suv resurslarini boshqarish loyihasini tayyorlash uchun Tranzaksiyalar bo'yicha texnik yordam (TBTY) dasturiga 1,2 million AQSh dollarini tasdiqladi. Mablag'lar OTBning Texnik yordam maxsus fondi (TYMF-6)dan grant sifatida berilgan bo'lib, texnik-iqtisodiy asoslash tadqiqotlari uchun mo'ljallangan;

34. TBTY loyihaning suv resurslarini boshqarishni yaxshilash (daryo havzasidan tortib xo'jalikgacha) bo'yicha strategiya, siyosat va institutlarni muvofiqlashtirish uchun yo'l xaritasi ishlab chiqish zaruratini aniqladi, shuningdek, iqlimga chidamli yangi texnologiyalarni joriy etish imkoniyatlarini ham ko'rib chiqdi;

35. Hukumat sakkizta potentsial sub-loyihalar ro'yxatini taklif qildi, shulardan Bobotog va Jondor sug'orish tizimlari birgalikda tanlandi va ular **“asosiy”** sub-loyihalar deb ataladi. Shuningdek, hukumat va OTB o'rtasida hukumat tomonidan taklif qilingan potentsial loyihalar ro'yxatidan **“asosiy bo'lmagan”** kichik loyiha deb ataladigan modernizatsiya uchun yana ikkita sug'orish va drenaj tizimini aniqlashga kelishib olindi, batafsil ma'lumot uchun 16-jadvalga qarang.

36. Loyiha qishloq xo'jaligida suvdan foydalanish samaradorligini uch tomonlama yondashuv orqali oshiradi:

a) Iqlimga chidamli va modernizatsiya qilingan Sug'orish va Drenaj infratuzilmasi, mavjud tizimlar doirasida suv o'lchash, nazorat va uzatishni yaxshilash maqsadida;

b) Xo'jaliklarda ishonchli suv boshqaruvini kuchaytirish, jumladan, suv iste'molchilar assotsiatsiyalarining (SIA) salohiyatini oshirish, fermer xo'jaliklari darajasida yer va suv resurslarini boshqarishni takomillashtirish va suvdan foydalanish unumdorligini oshirish uchun zamonaviy texnologiyalarni qo'llash; va

c) Barqaror suv resurslarini boshqarish uchun siyosat va institutsional mustahkamlash.

Sakkizta potentsial sub-loyihalar ro'yxatidan **“asosiy bo'lmagan”** (non-core) sub-loyihani aniqlash uchun “Kegeyli” sug'orish tizimi tanlandi. Tanlashda OTB tomonidan oldindan belgilangan screening mezonlari(sub-loyihalarni tanlashda qo'llanadigan oldindan belgilangan texnik, ijtimoiy va ekologik mezonlar) qo'llanildi, batafsil ma'lumot uchun 1-ilovaga qarang. Screeningdan oldin, atrof-muhit va ijtimoiy xavf-xatarlarning darajasini baholash maqsadida qisqa obyekt tekshiruv

(reconnaissance survey-loyihani tanlashdan oldin atrof-muhit va ijtimoiy xavf-xatarlarni dastlabki baholash) o'tkazildi.

1.1. DAMT maqsadi

37. Kegeyli kanali, hukumat tomonidan aniqlangan sakkizta sub-loyihalar ro'yxatidan keng muhokamalar va oldindan belgilangan screening mezonlariga javob berishdan so'ng tanlangan ikki "asosiy bo'lmagan" (non-core) sub-loyihalardan biridir.

38. Kegeyli sub-loyahasining Dastlabki atrof-muhit tekshiruvi (DAMT) O'zbekiston Respublikasi atrof-muhit qonunchiligiga va OTBning Ekologik va ijtimoiy xavfsizlik siyosati bayonoti (EIXSB, 2009) talablariga rioya etishga qaratilgan yirik loyihaning bir qismi sifatida o'tkazilmoqda.

39. Osiyo Taraqqiyot Banki (ADB)ning 2009 yildagi Ekologik va ijtimoiy xavfsizlik siyosati bayonoti (EIXSB) talablariga muvofiq, Kegeyli sug'orish tizimi B kategoriyasiga mansub loyiha sifatida tasniflangan. Kegeyli sub-loyahasining DAMTsi loyihaning dastlabki texnik-iqtisodiy asoslash hisobotidan, dala tadqiqotidan, birlamchi va ikkilamchi ma'lumotlar tahlilidan, potensial ta'sirlarni xarakterlash va baholashdan, shuningdek, mahalliy va boshqa manfaatdor tomonlar bilan intervyu va muhokamalardan foydalangan holda tayyorlangan.

DAMT quyidagi maqsadlarda tayyorlangan:

- a) Subloyiha doirasidagi mavjud ijtimoiy-ekologik sharoitlarni tavsiflash;
- b) Sub-loyihalarni amalga oshirish natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan potensial atrof-muhit ta'sirlari va xavflarni aniqlash;
- c) Sub-loyihalarni joylashuvi, dizayni va texnik yechimlari asosida tahlil qilish, shu jumladan "loyiha amalga oshirilmasligi" (no project) variantini ham hisobga olish;
- d) Iqlim o'zgarishiga mos javob bera oladigan variantlarni taklif qilish
- e) Potensial atrof-muhit ta'sirlarini oldindan aniqlash va baholash
- f) Loyihaning atrof-muhit va zarar ko'rgan odamlarga salbiy ta'sirini imkon qadar oldini olish;
- g) Agar loyihaning salbiy ta'siridan qochish imkoni bo'lmasa, atrof-muhit va zarar ko'rgan odamlarga bo'lgan salbiy ta'sirlarni kamaytirish, yumshatish va kompensatsiya qilish;
- h) AMBRni ishlab chiqish, unga taklif etilgan yumshatish choralari, monitoring dasturi va hisobot berish talablari, institutsional va tashkiliy tuzilmalar, shuningdek, imkoniyatlarni rivojlantirish kiradi
 - i) Rivojlanish va malaka oshirish choralari;
 - j) Sub-loyihada shikoyatlarni ko'rib chiqish tartibini tavsiflash va joriy etish, bunda zarar ko'rgan shaxs yoki norozi tomon o'z shikoyatlarini bildirish va ularni hal qilish imkoniga ega bo'ladi.

1.2. Yondashuv va metodologiya

40. DAMT OTBning EIXSB (Ekologik va ijtimoiy xavfsizlik siyosati bayonoti) talablariga muvofiq tayyorlangan. Tadqiqot quyidagi faoliyatlarni amalga oshirish orqali olib borilgan:

- a) Loyiha hududining dastlabki baholash va o'rganish jarayoni.
- b) Loyiha hududlariga tashrif buyurish
- c) Ikkilamchi ma'lumotlarni ko'rib chiqish
- d) Texnik-iqtisodiy hisobot loyahasini ko'rib chiqish.
- e) LBQ (Loyihani boshqarish qo'llanmasi)da belgilangan xavfsizlik shartlari
- f) Oldindan belgilangan mezonlar asosida saralash (screening)
- g) Asosiy sub-loyihalar va boshqa shunga o'xshash loyihalarning DAMT hisobotlarini ko'rib chiqish
- h) Jamoatchilik bilan uchrashuvlar (konsultatsiya)

- i) Ushbu loyihada ishtirok etuvchi milliy va xalqaro mutaxassislar bilan o‘zaro hamkorlik
- j) Qoraqalpog‘iston viloyati bo‘yicha geologiya, yer osti va yer usti suvlar, tuproq, iqlim, flora, fauna va madaniy resurslarga oid nashr qilingan hisobotlarni ko‘rib chiqish.
- k) Ushbu loyiha bo‘yicha xalqaro mutaxassislar tomonidan olib borilgan qo‘shimcha tadqiqotlarni ko‘rib chiqish

1.3. Loyiha kategoriyalashuvi

41. Kegeyli sug‘orish tizimini saralashdan oldin, 2023-yil 27-mayda xavfsizlik bo‘yicha mutaxassislar tomonidan oldindan loyiha hududi tekshiruvi o‘tkazilgan va keyinchalik boshqa mutaxassislar tomonidan atrof-muhit va ijtimoiy xavflarning darajasini baholash uchun qo‘shimcha tashrif amalga oshirilgan. Oldindan loyiha hududi tekshiruvi shuni ko‘rsatdiki, aksariyat ekologik va ijtimoiy ta’sirlar faqat loyiha hududiga xos bo‘lib, ularni oqilona atrof-muhit va ijtimoiy boshqaruv rejasi (OAMIBR)ni qo‘llash orqali kamaytirish mumkin. Ekologik va ijtimoiy saralash natijalari 17B-jadvalda jamlangan. Oldindan belgilangan OTB saralash mezonlariga asoslanib, loyiha quyidagi sabablar bo‘yicha B kategoriyali loyiha sifatida tasniflangan, batafsil ma’lumot uchun 1-Blokka qarang

Blok 1: Nima uchun Kegeyli B kategoriyali loyiha sifatida tasniflanadi

- a) A kategoriyali loyihalarga qaraganda atrof-muhitga ta’siri kamroq;
- b) Ta’sirlarning aksariyati hududga xos bo‘lib, ularning ba’zilari qaytarilmas (masalan, kanalning ikkala tomonidagi daraxtlarni kesish) va
- c) Ko‘pgina hollarda salbiy ta’sirlarni kamaytirish choralarini A kategoriyali loyihalariga nisbatan osonroq ishlab chiqish mumkin.

Shuning uchun DAMT OTBning atrof-muhitni muhofaza qilish talablariga javob berish uchun etarli deb hisoblanadi. Dastlabki baholashga ko‘ra, loyiha natijasida taxminan 56,94 ga maydonga vaqtincha yoki doimiy ravishda ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, ham milliy qonunchilik, ham OTBning 2009-yil EIXSB talablari amal qilishi lozim.

42. *Milliy siyosatga muvofiq (Vazirlar Mahkamasi qarori 541, 07.09.2020), Kegeyli sub-loyihasi II kategoriya loyihasi sifatida tasniflangan va shuning uchun Milliy hukumatning Atrof-muhitga ta’sirni baholash (AMTB) talablari bo‘yicha AMTB majburiy hisoblanadi.*⁶

1.4. Kegeyli sub-loyihasi “amalga oshirilsa” va “amalga oshirilmasa” kutiladigan natijalar va ta’sirlar

43. Kegeyli sug‘orish tizimi 1938-yilda qurilgan bo‘lib, bu mamlakat mustaqillikka erishishidan (1991) taxminan 80 yil oldin qurilgan. Tizimning boshqaruv hududi taxminan 100,65 ming ga maydonni qamrab oladi va suvni Amudaryo daryosidan oladi. Kanal Nukus, Kegeyli, Chimbay, Qorao‘zyak, Bozatov va Mo‘ynoq tumanlarini suv bilan ta’minlaydi, batafsil ma’lumot uchun 7 va 8-rasmlarga qarang.

44. Kegeyli kanalida taklif qilingan qurilish ishlari hajmi va loyiha hududi tekshiruvi natijalariga ko‘ra, aksariyat ekologik va ijtimoiy ta’sirlar hududga xos bo‘lib, ularni oqilona atrof-muhit va ijtimoiy boshqaruv rejasi (OAMIBR)ni qo‘llash orqali kamaytirish mumkinligi aniqlangan. Batafsil ma’lumot uchun 2 va 3-jadvallarga qarang: Loyihaning “amalga oshirilgandagi” va “amalga oshirilmagandagi” holatlaridagi ta’sirlari.

⁶⁶Decree of the Cabinet of Ministry No.541 of 7 September 2020 “On further improvement of the environmental impact assessment mechanism” (<https://www.lex.uz/docs/4984499>)

45. OTBning oldindan belgilangan saralash mezonlariga asoslanib, loyiha OTB EIXSB 2009 ga muvofiq B kategoriyali loyiha sifatida tasniflangan. Ekologik va ijtimoiy saralash natijalari 17B-jadvalda jamlangan.

46. Hududda hech qanday oʻrmon yoki qoʻriqlanadigan hudud mavjud emas. Xalqaro tabiatni muhofaza qilish uyushmasi (XTMQU) maʼlumotlariga koʻra, “Kegeyli” kanal hududidagi turlar “kam xavfli” (Least Concern) toifasiga kiradi. Hududda hech qanday noyob va xavf ostidagi turlar, qoʻriqlanadigan yoki ekologik sezgir joylar mavjudligi qayd etilmagan. Kanal boʻylab maydon tekshiruvi natijalariga koʻra, loyihaning hududidagi havo va shovqin sifati umuman qoniqarli boʻlib, bu qishloq joylashuvi, kam transport harakati va sanoat korxonalari mavjud emasligi bilan izohlanadi.

2-jadval: Mahalliy atrof-muhitga ta'sirlar – Loyihasi amalga oshirilsa va amalga oshirilmaganda

T/r	Ta'sir zonalari	Qo'llanilishi	Loyiha amalga oshirilmasa	Loyiha amalga oshirilsa (Loyiha amalga oshirilishi natijasidagi ta'sirning darajasi)
1	Majburiy ko'chirish va tirikchilik manbalarini yo'qotish	Dastlabki baholashga ko'ra, Kegeyli kanalini modernizatsiya qilish majburiy ko'chirishni keltirib chiqaradi (OTB EIXSB 2009 talablariga muvofiq). Hisob-kitoblarga ko'ra, 56,94 ga zarar ko'radi; • 4 ta ijara fermer xo'jaligi – 26,81 ga • 1 ta pillachilik fermasi va Chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi yerlari – 4,25 ga • 4 ta agrokorxona -17,76 ga • Tuman zahira yerlari – 8,12 ga. Kegeyli hududida qishloq xo'jaligi yerlarining o'zgartirilishi (o'zlashtirilishi, foydalanishi) natijasida ba'zi aholi tirikchilik manbalarini yo'qotishi kutilmoqda. Kegeyli sub-loyihasida dastlabki obyekt tekshiruvi shuni ko'rsatadiki, u (a) suv xavfsizligini yaxshilash (b) mahalliy ish o'rinlarini yaratish (c) suv xavfsizligi tufayli foydalanuvchilar iqtisodiy	Ta'sir yo'q	+++

		imkoniyatlarini mustahkamlash (d) iqtisodiy va ijtimoiy farovonlikni yaxshilash.		
3	Yaqin atrofda arxeologik va madaniy jihatdan muhim joy mavjud	• Qo'llab bo'lmaydigan	Qo'llab bo'lmaydigan	-
4	Loyiha hududida Muhim Biologik Hududlar (Key Biodiversity Areas, KBA) mavjudligi	• Qo'llab bo'lmaydigan	Qo'llab bo'lmaydigan	-
5	Yo'qolib ketish xavfi ostida turgan, yoki muhofaza qilinadigan turlarning mavjudligi	• Qo'llab bo'lmaydigan	Qo'llab bo'lmaydigan	-
6	Daraxtlarni kesish	• Dastlabki baholash asosida 1565 ga yaqin daraxt kesiladi	Ta'sir yo'q	+++
8	Jamiyat salomatligi va xavfsizligi	• Aholi zichligi kam, asosan qishloq xo'jaligi yerlari, • Kanalning har ikki tomonida tarqoq va kam sonli aholi yashash punktlari qayd etilgan. • Loyiha ishga tushirilishi katta ko'lamli qurilish ishlari, mahalliy resurslarga bosim va transport harakatining oshishi tufayli jamoatchilik salomatligi va xavfsizligiga xavf tug'diradi.	Oddiy	+++
9	Mehnat salomatligi va xavfsizligi	• Loyiha qurilish materiallarini tashish uchun yangi yo'l qurilishini nazarda tutadi • Loyiha ko'plab ishchilarni jalb qiladi; demak, bunday hajmdagi loyiha ishchilarning mehnat salomatligi va xavfsizligi bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqaradi.	Ta'sir yo'q	+++

10	Transport harakati yoki yo'l harakati ta'sirlari	Katta ko'lamli qurilish ishlari tufayli transport harakati oshadi va mahalliy resurslarga sezilarli bosim tushadi, bu esa havoning va shovqinning ifloslanishiga, jamoatchilik salomatligi va xavfsizligiga hamda aholining noqulayliklarga duch kelishiga olib keladi.	Oddiy	+++
12	Tuproq va yer osti suvlarining ifloslanishi	Bunday hajmdagi loyihada ko'p miqdorda neft mahsulotlari va xavfli materiallardan foydalanish va qattiq va suyuq chiqindilar (xususan, qurilish lageri) hosil bo'ladi. Mitigatsiya choralarining yetishmasligi tuproq va yerosti suvlarining ifloslanishiga olib keladi.	Oddiy	++
13	Suvning ifloslanishi	Juda katta emas, asosan ishchi lagerlari, qurilish lageri va mexanik ustaxonalaridan kelib chiqadi	Oddiy	+
14	Havoning ifloslanishi	Qurilish ishlari vaqtinchalik ravishda mahalliy havoning sifatiga ta'sir qiladi, asosan transport harakati, beton aralashma uskunalari va qurilish materiallari zaxiralari tufayli kelib chiqadigan yo'l changi (bo'sh tuproq) tufayli. Biroq, ochiq havoda ishlarning ko'lamini hisobga olgan holda, bu ta'sirlar sezilarli bo'lishi kerak	Oddiy	+++
15	Shovqin tufayli zaharlanish	Doimiy ta'sir qilish tufayli odamlarga noqulaylik tug'diradi va ishchilarning sog'lig'iga ta'sir qiladi	Cheklangan	+++
18	Ishchilar oqimi	Mahalliy resurslarga bosim o'tkazish, mahalliy aholi hayotiga aralashish va yuqumli kasalliklarni tarqatish orqali ijtimoiy nizolarni kuchaytirish	Cheklangan	+++

21	Transchegaraviy ta'sirlar	Transchegaraviy ta'sirlar kutilmaydi	Yo'q	Atrof-muhitga ta'sirlar umumiy, vaqtinchalik, qaytariladigan va asosan aniq hudud (joy) bilan cheklanadi
22	Induktsiya qilingan ta'sirlar	Loyiha bir qator qisqa muddatli va uzoq muddatli ta'sirlarni keltirib chiqaradi	Oddiy	Suv xavfsizligining (ta'minotini) yaxshilanishi fermerlar ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, bu esa ularning daromad salohiyatini mustahkamlab, natijada umumiy ijtimoiy-iqtisodiy farovonlikka, shu jumladan sog'liq holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. (+++ Ijobiy ta'sir)
24	Kumulativ ta'sir (bu bir necha alohida ta'sirlarning vaqt o'tishi bilan jamlanib , birgalikda kattaroq, murakkab yoki doimiy ta'sirga olib kelishini anglatadi.)	Ko'paytiruvchi (multiplikativ) ta'sirlar (sekin amalga oshadigan)	Oddiy	Yo'l va harakatchanlikni yaxshilash, gender tengligini ta'minlash, ayollarning yer va suv resurslarini boshqarishdagi ishtirokini oshirish, iqlimga chidamli infratuzilmani rivojlantirish hamda umumiy ijtimoiy-iqtisodiy farovonlikni mustahkamlash – (+++), ijobiy ta'sir

Eslatma: Past +, O'rtacha ++, Yuqori +++

3-jadval: Loyiha amalga oshirilmasa va loyiha amalga oshirilganda kanallar bo'yicha suv sarfi taqqoslanishi

T/r	Nomi	Tizim samaradorligi	Suv sarfi million m³
1	Loyiha amalga osirilmagandagi holatda suv sarfi	0.53	3422.7
2	Loyiha amalga oshirilgan holatda suv sarfi (kanallarni modernizatsiya qilish)	0.72	2519.6
3	Suv sarfini kamaytirish / oshirish	-	903.1

1.5. Cheklovlar va chegaralar (limitlar)

47. Loyiha amalga oshirish imkoniyatini o'rganish bosqichida bo'lgani uchun, ko'plab tadbirlar hali rivojlanishning dastlabki bosqichida turibdi;

- (a) Batafsil loyiha dizayni va yakuniy texnik qarorlar
- (b) Xom ashyo manbalarini aniqlash,
- (c) Qazib olish joylari (karyer) joylashuvi va soni,
- (d) Kesilishi rejalashtirilgan daraxtlarning aniq soni
- (e) Yo'l qurilishi
- (f) Ishchi kuchiga bo'lgan ehtiyoj va ularning turar joyi va boshqalar

Yuqoridagi barcha masalalar hozirgi qabul qilingan ish hajmidan farq qilishi mumkin. Agar loyiha dizayni bo'yicha har qanday tafsilotlar yoki yuqorida ko'rsatilgan texnik qarorlar o'zgarsa va natijada kutilmagan atrof-muhit ta'sirlari yuzaga kelsa, DAMT va AMBR LAOB/LAOBM tomonidan yangilanadi.

1.6. Hisobot tuzilmasi

48. Ushbu hisobot ijroiya xulosasi hamda jami o'n bo'limni o'z ichiga oladi. Hisobot OTB EIXSB (2009) talablariga muvofiq tarzda tuzilgan:

- a) **I bob: Kirish** – Ushbu bo'lim loyihaga oid kirish ma'lumotlarini taqdim etadi.
- b) **II bob: Huquqiy, siyosiy va ma'muriy asoslar** – Ushbu bo'lim milliy siyosat va qonunchilik asoslarini, shuningdek, amal qiluvchi OTB EIXSB (2009) standartlari haqida umumiy ma'lumot beradi.
- c) **III bob: Loyihaning tavsifi** – Ushbu bo'lim loyihaning zarurligini bayon etadi. Loyihaning muqobil variantlarini o'z ichiga olgan talab qilinadigan muhandislik ishlari turini ko'rsatadigan ishlarning batafsil hajmi ham taqdim etiladi.
- d) **IV bob: Atrof-muhitning tavsifi (asosiy ma'lumotlar)** – Ushbu bo'lim mintaqaviy va mahalliy atrof-muhitning boshlang'ich holatini muhokama qiladi.
- e) **V bob: Kutilayotgan atrof-muhitga ta'sirlar va kamaytirish choralari** – Ushbu bo'lim mumkin bo'lgan atrof-muhit ta'sirlarini tavsiflaydi va ularni va ularni yumshatish choralarini taklif qiladi.
- f) **VI bob: Muqobil variantlarning tahlili** – Ushbu bo'lim taklif etilgan inshoot, texnologiya, loyiha va ekspluatatsiya uchun muqobil variantlarni, shu jumladan loyiha amalga oshirilmaslik (no-project) variantini taqdim etadi.
- g) **VII bob: Jamoatchilik bilan uchrashuvlar, ma'lumotlarni oshkor etish** – Ushbu bo'lim amalga oshirilgan barcha manfaatdor tomonlar bilan uchrashuv faoliyatlarining qisqacha mazmunini taqdim etadi.
- h) **VIII bob: Shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi (ShKChM)** – Ushbu bo'lim shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmining batafsil tizimini, jumladan ma'lumotlarni oshkor qilish mexanizmini taqdim etadi.
- i) **IX bob: Atrof-muhitni boshqarish rejasi va institutiy talablar** – Ushbu bo'lim loyihaning loyihalashtirish, qurilish va ekspluatatsiya bosqichlari uchun Atrof-muhitni boshqarish rejasini taqdim etadi.
- j) **X bob: Xulosa va tavsiyalar** – Hisobotning yakuniy bo'limi hisobot xulosalari hamda zarur bo'lgan tavsiyalarni taqdim etadi.

PIU/ LAOB	Loyihani amalga oshirish bo'limi
PIC/ LAOBM	Loyihani amalga oshirish bo'yicha maslahatchi
EMP/ AMBR	Atrof-muhitni boshqarish rejasini
ESMP/ OAMIBR	Oqilona atrof-muhit va ijtimoiy boshqaruv rejasi
SSEMP/ OUMAMBR	Obyekt uchun maxsus atrof-muhitni boshqarish rejasi
GRM/ ShKChM	Shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi
CIFIPWS/ SXSXILAOM	Suv xo'jaligi sohasida xorijiy investitsiyalar loyihalarini amalga oshirish markazi
IEE/ DAMT	Dastlabki atrof-muhit tekshiruvi
SPS/ EIXSB	Ekologik va ijtimoiy xavfsizlik siyosati bayonoti
EIA/ AMTB	Atrof-muhitga ta'sirni baholash
BISA/ HITB	Havza irrigatsiya tizimi boshqarmasi
PMU/ LBB	Loyiha boshqaruv birligi
OHS/ MSX	Mehnat salomatligi va xavfsizligi